

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA O'QITUVCHI ROLI

Sobirova Gulchexra

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti 3-kurs talabasi
gulchexasobirova02@gmail.com*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijodiy fikrlashning ta'limiy ahamiyati yoritilib, ona tili darslarida o'quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar tahlil etiladi. O'qituvchining darsdagi tashkiliy va ruhiy iqlimni yaratishdagi roli, ijodiy topshiriqlarni tanlash va baholashdagi mas'uliyati amaliy misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, ona tili, o'qituvchi, metodik yondashuv, tafakkur, topshiriqlar, baholash.

Annotation

This article examines the educational value of creative thinking and analyzes methodological approaches that enhance students' cognitive activity in mother tongue lessons. It highlights the teacher's role in creating a supportive classroom environment, selecting creative tasks, and assessing students through practical examples.

Keywords: creative thinking, mother tongue, teacher, methodological approach, cognition, tasks, assessment.

XXI asrda o'quvchini shunchaki bilimli emas, balki fikrlaydigan, izlanadigan, tahlil qila oladigan va ijodkor inson sifatida tarbiyalash – zamonaviy ta'limning bosh maqsadiga aylangan. Ayniqsa, ona tili darslari bu jarayonda beqiyos imkoniyatlarga ega. Ona tili darslari orqali o'quvchilar so'z boyligini oshirish, nutqiy madaniyatni shakllantirish bilan birga, o'z fikrini erkin ifoda eta olish, mustaqil mulohaza yuritish, yangicha qarashlarga ega bo'lish kabi ko'nikmalarga ham ega bo'ladilar.

Ijodiy fikrlash – o'quvchining o'ziga xos yondashuvni topishi, yangilik yaratishga intilishi, shablon fikrlardan chiqib, betakror yechimlar taklif qila olishi demakdir. Bunday tafakkurni shakllantirishda o'qituvchining yondashuvi, darsdagi uslub va topshiriqlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli ijodiy fikrlashni ona tili darslari orqali qanday yo'l bilan rivojlantirish mumkinligi, qanday usullar samarali ekani – bugungi ta'limda dolzarb masalaga aylangan.

Ijodiy fikrlash ta'lim psixologiyasi, pedagogikasi hamda til o'rgatish nazariyasida muhim mavzu sifatida ko'plab tadqiqotlarda yoritib kelinmoqda. O'zbekiston olimlaridan G'. Sattorov, A. To'ychiev, N. To'lqinova, X. Juraev, B.

Jo'rayev va boshqalar o'z izlanishlarida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, samarali usullari haqida yozib o'tganlar.

Yangi o'quv dasturlarida o'quvchining fikrlash faoliyatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda maktab o'quvchilari nafaqat bilimga, balki tafakkur, tahlil va ijodga tayyor bo'lishi talab etiladi. Ijodiy fikrlashni shakllantirmagan o'quvchi faqat yodlashga asoslangan bilimga ega bo'lib qoladi, bu esa zamonaviy hayot talablariga javob bermaydi. Ona tili darslari esa ijodga eng qulay imkoniyatlar maydonidir: insho yozish, hikoya tuzish, erkin fikr bildirish, muammoni tahlil qilish, fikrini himoya qilish kabi topshiriqlar orqali o'quvchining ijodiy salohiyatini uyg'otish mumkin. Shu bois, bu mavzuni chuqur va tizimli o'rganish, o'qituvchilarga amaliy tavsiyalar berish hozirgi ta'lim islohotlarida ayni dolzarb masaladir.

Ona tili ta'limida ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha samarali usullarni tanlash va qo'llashdan avval, avvalo "ijodiy fikrlash" tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlab olish muhimdir. Turli sohalardagi mutaxassislar bu tushunchaga turlicha yondashadilar. Jumladan, pedagog olim T. Isroilov ijodiy fikrlashni shaxsning muammoni hal qilishga yo'naltirilgan, tajribadan tashqariga chiqa oladigan, original yondashuv asosida yangi mahsulot yaratishga qaratilgan tafakkuri sifatida talqin etadi [Isroilov, 2007:89].

Psixolog olim G'. Jo'rayev esa buni inson tafakkurining eng yuqori bosqichi deb hisoblaydi va ijodiy fikrlash shaxsdan mustaqillik, noodatiy qaror qabul qilish va yangilik yaratishni talab qilishini ta'kidlaydi [Jo'rayev G'., 2018:63–65].

Yana bir tadqiqotchi, falsafa fanlari doktori Sh.A. Jo'rayev esa ijodiy tafakkurni hodisalarni yangi nuqtai nazardan tushunish, muammoning bir nechta yechimini ilgari surish va noodatiy yondashuvni taklif eta olish qobiliyati sifatida belgilaydi [Jo'rayev Sh.A., 2012:47].

Mazkur ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ijodiy fikrlash — bu inson tafakkurining murakkab, ammo o'ta muhim shakli bo'lib, u o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, o'z fikrini mustaqil bayon qilish, tahlil qilish, o'ziga xos g'oyalarni ilgari surishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu ko'nikmalar ona tili darslarida shakllantirilsa, natija samarali bo'ladi.

O'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish — bugungi ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu borada ona tili darslari keng imkoniyatlarga ega bo'lib, dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilishi, taqqoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida qaraladi. Bunday yondashuvlar o'quvchida nafaqat nazariy bilimni, balki uni amaliyotda qo'llash, yangicha yechimlar taklif qilish qobiliyatini ham shakllantiradi.

O'quvchining ijodiy fikrlashini rivojlantirishda o'qituvchining roli nihoyatda muhimdir. Zero, o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchining tafakkurini

faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi shaxs sifatida faol ishtirok etishi kerak. U ijodiy muhit yaratish, har bir o'quvchining fikriga hurmat bilan yondashish, noan'anaviy savollar va topshiriqlar orqali fikrlash faoliyatini rag'batlantirish orqali ijodiy tafakkurga asos soladi [Musayev J., 2022:23].

Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda samarali deb topilgan quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

"Aqliy hujum" (*brainstorming*) usuli – bu yondashuv orqali o'quvchilarga erkin fikr bildirish imkoni yaratiladi. Har qanday g'oya qadrlanadi va inkor qilinmaydi. Ayniqsa, matn ustida ishlash, mavzular bo'yicha yangi fikrlar ilgari surishda bu usul sezilarli natija beradi. *Muammoli vaziyatlar yaratish* – darsda muayyan savol yoki masala qo'yilib, o'quvchilardan unga turli yechimlar topish so'raladi. Bu esa ularni faol fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga undaydi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish faqat nazariy bilim bilan chegaralanmasligi kerak. Aksincha, o'quvchilarga o'rgatilgan bilimlarni real hayotda qo'llashga imkon beradigan amaliy usullar ko'proq natija beradi:

Integratsiyalashgan darslar – ona tili fanini adabiyot, tarix, san'at kabi boshqa fanlar bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda kontekstual tafakkur, keng tasavvur va kreativ yondashuvlarni kuchaytiradi.

Portfolio usuli – o'quvchining ijodiy ishlari (insho, hikoya, fikrlar, matnli tahlillar)ni muntazam yig'ib borish, ularni baholash va tahlil qilish orqali bolaning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va uni rag'batlantirish imkonini beradi.

Didaktik o'yinlar va interaktiv topshiriqlar – bu kabi mashg'ulotlar o'quvchini bevosita darsga jalb qiladi, fikrlashga majbur qiladi va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, rolli o'yinlar, savol-javoblar, mantiqiy zanjir tuzish kabi topshiriqlar ijodiylikni ochadi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida o'qituvchi yetakchi va yo'naltiruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Darsda ijodiy muhitni aynan o'qituvchi yaratadi. U quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

- O'quvchilarni mustaqil fikr bildirishga, erkin mulohaza yuritishga ilhomlantiradi;

- Har bir o'quvchining shaxsiy yondashuvini qadrlaydi, fikriga hurmat bilan yondashadi;

- Darslarni ijodiy va hayotiy yo'sinda tashkil etadi, quruq grammatikani emas, balki uni kommunikativ vaziyatlarda qo'llashni o'rgatadi;

- O'quvchilarni savol berishga, fikr almashishga, bahs-munozaralarda qatnashishga jalb qiladi;

- Har bir mashg'ulotda yangi g'oya yoki yangilik yaratish imkoniyatini beradi, bu esa ijodiy tafakkurning asosiy tamoyillaridan biridir.

O'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish bilan bir qatorda, uni to'g'ri va tizimli baholash ham o'qituvchi zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Chunki ijodiy fikrni baholash – bu nafaqat natijani o'lchash, balki o'quvchining fikr yuritish jarayonini, yondashuvini va o'ziga xoslik darajasini aniqlash demakdir.

Ijodiy faoliyatni baholashda an'anaviy yondashuvlar yetarli emas. Bu jarayonda quyidagi mezonlar asosida yondashuv qo'llanilishi tavsiya etiladi:

- Yangi g'oyalarning mavjudligi – o'quvchining javobida yoki topshiriqda ilgari surilgan fikrlar yangiligi, odatiy andozadan farqlanishi;
- Mantiqiy izchillik – fikrlar orasidagi bog'liqlik, asoslanganlik va xulosa chiqarish qobiliyati;
- Originallik – betakror yondashuv, noodatiy fikr yoki yechim ilgari surilishi;
- Tahlil va taqqoslash qobiliyati – o'quvchining o'rganilgan ma'lumotlar asosida xulosa chiqarishi, muqobil fikrlarni tahlil qilishi;
- Ijodiy ifoda vositalaridan foydalanish – badiiylik, obrazlilik, stilistik vositalarning o'rinli ishlatilishi.

Shuningdek, baholashda reyting tizimi, portfolio tahlili, o'z-o'zini baholash, guruhiy fikr bildirish, og'zaki va yozma mulohazalar asosida baholash kabi zamonaviy yondashuvlar ham samarali bo'lishi mumkin. Eng asosiysi, o'qituvchi baholash jarayonida o'quvchining shaxsiy o'sishini e'tiborga olishi, harakatni qadrlashi, tanqid emas, rag'batlantirish yo'lini tanlashi kerak.

Shu yo'l bilan baholash nafaqat nazorat vositasi, balki rivojlantiruvchi omilga aylanishi mumkin.

Ona tili darslarida o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish – ularning nafaqat til boyligini, balki tafakkur madaniyatini ham rivojlantiradi. Bunda o'qituvchi yetakchi rolni bajaradi: u o'quvchini mustaqil fikrlashga yo'naltiradi, turli interaktiv usullar orqali yangicha yondashuvlarni rag'batlantiradi va eng muhimi, o'quvchining shaxsiy fikrini qadrlaydi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda an'anaviy metodlardan chiqib, zamonaviy, amaliy yondashuvlarni qo'llash – darsni yanada samarali, o'quvchini esa faol ishtirokchiga aylantiradi. Shuningdek, ijodiy yondashuvlarni baholash mezonlari va usullarini aniqlashtirish o'qituvchining o'z faoliyatini ham takomillashtirishga xizmat qiladi. Demak, ona tili darslari nafaqat grammatik bilimlar beriladigan maydon, balki ijod, tafakkur va shaxsiy rivojlanish makoniga aylanishi kerak.

Shu bilan birga, bu jarayonda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchi tafakkurini yo'naltiruvchi, unda yangicha qarash va yondashuvlarni shakllantiruvchi murabbiy sifatida namoyon bo'ladi. U darsni ijodiy tashkil etish, har bir o'quvchining fikriga hurmat bilan yondashish va baholash mezonlarini adolatli belgilash orqali ijodiy muhit yaratadi.

O'qituvchining samimiyati, erkin fikrlashga ochiqqligi va innovatsion usullarni qo'llay olish qobiliyati o'quvchining ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi omildir. Demak, ijodiy fikrlaydigan avlodni tarbiyalashda eng asosiy kalit – o'z ishiga fidoyi, zamonaviy va ilg'or fikrlovchi o'qituvchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isroilov T. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – b. 89.
2. Jo'rayev G'. Ta'lim jarayonida tafakkurni shakllantirish. – Toshkent: Ilm ziyo, 2018. – b. 63–65.
3. Jo'rayev Sh.A. Ijodiy tafakkur va uning rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2012. – b. 47.
4. Musayev J. O'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish. – Samarqand: SAMMU elektron kutubxonasi, 2022. – b. 23.